



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TABIIY FANLARIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

**Alimardonova Mo'tabar Xolmo'minovna**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Tog'ayeva Sevinch Komiljon qizi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'linda tabiiy fanlaridan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish, o'quvchilarni sinfdan tashqari ishlarga jalg etish va qiziqtish haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda yangi va zamонавиу та'lim texnologiyalaridan foydalanish, mavzuga mos metodlarni ishlab chiqish hamda ulardan o'rинли foydalanish xususida so'з boradi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, tabiiy fan, sinfdan tashqari ishlar, nazariy bilim, amaliy mashg'ulot, metod, texnologiya.

## ORGANIZATION OF EXTRA-CLASS ACTIVITIES IN NATURAL SCIENCES IN PRIMARY EDUCATION

**Abstract.** This article discusses the organization of extracurricular activities in the natural sciences of primary education, the involvement and interest of students in extracurricular activities. It also discusses the use of new and modern educational technologies in organizing extracurricular activities, the development of methods appropriate to the subject, and their appropriate use.

**Keywords:** primary education, natural science, extracurricular activities, theoretical knowledge, practical training, method, technology.

## ОРГАНИЗАЦИЯ ВНЕКЛОННОЙ РАБОТЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫМ НАУКАМ

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается организация внеклассной работы по естествознанию начального образования, вовлечение и заинтересованность учащихся во внеклассной деятельности. Речь идет



также об использовании новых и современных образовательных технологий, разработке предметных методик и их целесообразном использовании в организации внеклассной деятельности.

**Ключевые слова:** начальное образование, естествознание, внеклассная деятельность, теоретические знания, практика, метод, технология.

### Kirish

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi dunyo aholisi orasida hamon global muammo bo'lib qolmoqda. Darhaqiqat, ekologiyaning ifloslanishi tufayli insoniyat boshidan kechirayotgan turli xil tabiiy ofatlar chinakam xavf bo'ladi. Bu xavfni qisman bo'lsa ham bartaraf etishga harakat qilish har birimizning burchimizdir.

Ekologiyani asrash va tabiatni qayta jonlantirishga doir amalga oshirilayotgan islohotlar barqaror kelajak uchun tamal toshi vazifasini o'taydi desak adashmagan bo'lamiz. Atrof-muhitni asrash lozimligini yoshlarning ongiga singdirish, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish hamda biologik nazariy bilimlarni berish maqsadida ta'lim muassasalarida 1-sinfdan boshlab Atrofimizdagи olam fani o'qitilar edi. 2-sinfda ham bu fan davom etib, 3-4-sinfga kelib, Tabiatshunoslik fani, 5-6-sinfda esa bu fanlar biologiya, geografiya va fizika fanlariga bo'linib ketgan edi. 2021-2022-o'quv yildan boshlab O'zbekiston ta'lim tizimida yuqoridagi fanlar o'qniga umumlashgan "Tabiiy fan" joriyetildi. Tabiiy fanning darslik sifatida kiritilishi xorij mamlakatlarining ta'lim tizimidagi tajribalarni o'rganish natijasida amalga oshirildi. Tabiiy fan boshqa fanlardan farqli ravishda nazariy va amaliy bilimlarni birgalikda olish, olingan bilimlarni mustaqil ravishda hayotda qo'llash ko'nikmalarini o'quvchilarda shakllantirish maqsadida joriy etildi.

Boshlang'ich ta'limda Tabiiy fan darslarining ahamiyati kata. Fanni amaliy mashg'ulotlar bilan birga tashkil etish o'quvchilarning darsga bo'gan qiziqihini yanada oshiradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar tahlili:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar uchun 2021-2022-yillarda nashr etilgan tabiiy fan darsliklaridan, shuningdek mavzuga oid maqolalardan foydalanildi.

### Tadqiqot metodologiyasi



Bilamizki, o'quvchilarga fanni o'qitish bilan birga fanni yaxshi o'zlashtirish uchun sinfdan tashqari ishlarni olib borish lozim. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari ishlar muhim ahamiyatga ega.

Sinfdan tashqari ishlar ro'yxatiga fanga oid turli xil tadbirlar, ekskursiyalar, to'garaklar kabilarni kiritishimiz mumkin. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga sinfdan tashqari ishlarning ekskursiya turidan foydalansak, darsni ko'rgazmalilik asosida tashkil etgan bo'lamiz. Bunda o'quvchilar bilan birga darsni tabiat qo'ynida tashkil etish hamda dars mavzusidan chetlashmagan holda tushunchalar berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tabiiy fanlaridan biror bir qiziq mavzuni tanlab ochiq dars tashkil etish ham mumkin. Darsni qay holda tashkil etilishi esa o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Ochiq dars tashkil etish uchun 3-sinf tabiiy fanlar darsligining 8-bob, 31-mavzusini olishimiz mumkin. Mavzu "Ob-havo elementlari" deb nomlangan. Darsda bir qator amaliy mashg'ulotlardan va turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish mumkin. Misol qilib quyidagi metodni keltirishimiz mumkin:

"Sirli ob-havo" metodi

Kerakli jihozlar: ob-havo rasmlari aks etgan rasmlar, ob-havoga moslangan buyumlar aks etgan kartochkalar.

Metodning maqsadi: o'quvchilarni darsga qiziqtirish, ularda ob-havo bilan bog'liq o'zgarishlarda o'zini qanday tutish ko'nikmasini shakllantirish, ob-havo turlari bilan tanishtirish.

Metodni tashkil etish jarayoni: dastlab o'quvchilarga buyumlar surati aks etgan kartochkalar tarqatiladi. O'qituvchi doska oldidan ob-havo rasmlarini o'quvchilarga birma-bir ko'rsatadi. O'quvchilar shu ob-havoga mos tovush chiqaradi va oldidagi kartochkalardan qaysi biri aynan shu ob-havoga mos kelishini aniqlaydi. Masalan: yomg'irli havoni rasmi ko'rsatilganda o'quvchilar barmoqlarini partaga urib, tovush hosil qilishadi va kartochkalar orasidan soyabonni tanlashadi. Chunki yomg'irli havoda soyabon kerak bo'ladi. Metod shu tariqa davom etadi.

## Muhokama va natijalar



Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalangan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun turli to'garaklar tashkil etish ham mumkin. Masalan, "Tabiat himoyachilar" to'garagi. Quyida to'garak uchun tuzilgan loylik namunaviy ish reja bilan tanishamiz.

Nº	Mavzu nomi	Dars jarayonidagi amaliy mashg'uot	Uyga vazifa
1	O'simliklar bilan tanishuv	O'simliklardan namunalar olib kelish va ularni birgalikda o'rghanish	Bir turdag'i o'simlikni keying darsgacha o'stirib kelish, jarayonni kuzatish
2	Tabiatdagi suyuq moddalar bilan tanishuv	Suyuqliklar haqida ma'lumot berish, xavfsiz tajriba ko'rsatish(suv va yod eritmasini aralashtirib, natijani kuzatish)	2xil suyuqli aralashtirish natijasida hosil bo'lgan natijani kuzatish, xulosalash
3	Hayvonot olamining xilmassisligi	Hayvon turlari haqida ma'lumot berish	Uy hayvonlarining oziqlanishini kuzatish
4	Yasash joyi va muhit	Yashash joyi va muhit haqida ma'lumot berish, yashash joyiga qarab iqlim o'zgarishini tushuntirish	Quyosh botishini kuzatish va natjalarni qayd etish

### 1-ilova

Yuqorida keltirilgan to'garak ishlar rejasi 3-sinflar uchun mo'ljallangan bo'lib, haftada bir marotaba tashkil etiladi. To'garakning 2-haftasiga keltirilgan mavzuni tahlil qiladigan bo'lsak, 200ml suvga 70% li yod eeritmasidan tomiziladi va hosil bo'lgan natijani kuzatiladi. Uyga vazifa qilib o'quvchilarga suv va yog'ni bir xil



miqdorda aralashtirib, hozil bo'lgan natijani kuzatish va xulosalar varaqasiga qayd etishni berishimiz mumkin.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlardan sinfdan tashqari darslarni tashkil qilish ko'rgazmalilik asosida olib borilishi va barcha o'quvchi uchun bir xil tushunarli bo'lishi ish samarasini yanada oshiradi. Ayniqsa, ta'lim tizimimizga yangi joriy etilgan fanni boshlang'ich sinflarga yuqori saviyada tushuntirish kelajakdagi olinadigan bilimlar uchun tamal toshi vazifasini o'taydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tabiiy fanlar [Matn]: 2-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
2. Tabiiy fanlar [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / Z. Sangirova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 136 b.
3. Qurbanova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C.1030-1035.
4. R. Usmanova, & G. N. Xoldavlatova (2024). SINFDAN TASHQARI ISHLAR USTUVORLIGIDA TABIIY FANLARNI OQITISH METODIKASI. Academic research in educational sciences, 5 (CSPU Conference 1 Part 2), 714-718.
5. Sayfullayev, G. (2021). Methods of teaching younger students the ability to solve cognitive tasks of environmental protection. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 5(5).
6. G'ulom Maxmudovich Sayfullayev, & Luiza Alimova (2021). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'TISHDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISH. Scientific progress, 2 (6), 1063-1073.